

## MUHANDISLIK TA'MINOTINI TASHKILLASHTIRISHNING USUL VA YO'NALISHLARI.

*Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura  
tinglovchisi To'laboyev Shavkat G'ayratjonovich*

**Annotatsiya:** Hozirgi tahlikali bir davrda fuqarolarning tinchligi va davlat sarhadlarining dahilsizligini saqlash oliy maqsadlardan biri bo'lib turibdi. Bu yo'nalishdagi harakatlarda boshqa davlatlar bilan nizolarni yuzaga keltirmagan holda yurtimiz tinchligini tashqi va ichki dushmanlardan himoya qilishimiz lozim. Buning uchun esa kuch tuzulmalari va xarbiy muhandislik ta'minotini zamon talablariga mos ravishda tashkillashtirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmat, vatanparvarlik, statistik ma'lumotlar, Rossiya Federatsiyasi, boshqaruv prinsiplari, Belarus Respublikasi, xavfsizlikning eskicha nazariyasi.

Keyingi yillarda "**Xalq va armiya – bir tanu bir jondir**" degan ezgu g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Dunyo miqyosidagi hozirgi o'ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta'minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

Shuni hisobga olgan holda, "**O'zbekiston – 2030**" strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan bayram tabrigi"

Darhaqiqat kegingi yillarda harbiy hizmatga jalb etilgan askarlar soni yanada ko'paymoqda. Shu blan birga jahonda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalar bizning yurtimizda ham takrorlanmasligi uchun qilinayotgan sayi-harakatlar ko'لامи ham yuksalmoqda va ushbu maqolamiz ham shulardan biri desak adashmagan bo'lamiz.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlarning armiyamiz saflariga qo'shilishi va vatan himoyachilarining soni ko'payishi albbatta ko'ngilni ko'taradi, ammo ular yetarlicha qurol yaroq va texnologiyalar bilan ta'minlanganmi? Zamonaviy texnikalar, muhandislik texnoligiyalari va qurol-yaroq zahiralarini taqsimlash tartiblari qanday holatda? Ushbu savollarga mavzuyimiz davomida javob berib o'tamiz.

So‘zimiz avvalida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga tegishli statistik ma’lumotlarni berip o‘tsak:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida hozirgi kunda 20 harbiy poligo‘n ( ulardan 12 tasi jahon standartlari asosida qurilgan) faoliyat yuritadi.
- Global Firepower Index-2021 dunyo armiyalari reytingida 140 mamlakat orasida O‘zbekiston 54 o‘rinni egallagan. MDH davlatlari orasida Rossiya (2), Ukraina (22) va Belarusdan (52) keyin to‘rtinchchi o‘rinni egallab turibdi, Markaziy Osiyorada esa — birinchi o‘rinda[1].
- O‘zbekiston Havo kuchlarining harbiy havo texnikalari — 200 ta aviatexnikani tashkil etadi (45 o‘rin). Shundan 59 tasi — qiruvchi, 18 tasi — transport aviatsiyasi, 20 tasi — hujumkor samolyot, 7 tasi — o‘quv samolyotlardir. Havo kuchlari shuningdek, 96 ta vertolyot, shu jumladan, 33 tasi jangovar. O‘zbekiston havo mudofaasi qo‘sishlari va havo kuchlari MiG-29 qiruvchilari, Su-25 hujumkor samolyotlari, Il-76, Airbus C-295W CASA harbiy transportlari, qolaversa, Airbus H-125, Airbus H-215, Mi-24 i Mi-35 havo kemalaridan iborat[1].
- Quruqlik kuchlari 420 tank (34 o‘rin), 1215 ta zirhli transport (54 o‘rin), 137 ta o‘ziyurar artilleriya o‘rnatmalari (29 o‘rin), 60 dona og‘ir artelleriya (74 o‘rin) va 98 dona raketa tizimlarini (37 o‘rin) o‘z ichiga oladi. 2017 yilning noyabrida mamlakat sanoatining import o‘rnini bosuvchi, raqobatbardosh va eksportbop harbiy va ikki tomonlama mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyatini rivojlashtirish maqsadida Mudofaa sanoati davlat qo‘mitasi tashkil etilgandi. 2021 yilning noyabrida mahalliy dizayndagi Qalqon yengil zirhlangan avtomobilarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi[1].
- So‘ngi ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston armiyasida xizmat olib boruvchilar soni 55000 atrfida hisblangan. Taqqoslash uchun: Qozoxistonda- 45000, Turkmanistonda- 30000, Qirg‘izistonda- 15000, Tojikistonda- 9500 [2].
- Mamlakat harbiy xizmatchilari Xalqaro armiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli qatnashishmoqda. ArMI-2021 o‘yinlarida 4 ta oltin, 9 ta kumush va 4 ta bronzani qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida 2 o‘rinni egallashdi. 2020 yilda O‘zbekiston ArMI o‘yinlarining 30 ta ishtirokchisi orasida 3 ta konkursda g‘olib chiqib, 11 ta musobaqada esa sovrinli o‘rinlarga erishib, umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egallagan edi[1].
- So‘nggi marotaba O‘zbekistonning harbiy xarajatlari 2018 yilda ochiqlangandi. O‘shanda 2018 yil davlat budjetidan YAIMning 4 foizi miqdorida mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgandi. Mamlakat YAIM 290,6 trln so‘mga yetishi taxmin qilingandi, shu tariqa mudofaa xarajatlari 11,62 trln so‘mni yoki 1,44 mlrd dollarni tashkil qilgan bo‘lishi mumkin (bu haqda shuningdek Jahon banki ham ma’lum qilgandi)[1].

Ushbu statistikada ko'rsatilgan ma'lumotlar insonga taskinlik bersada, jahonda sodir bo'layotgan vacea-hodisalar armiyaning muhandislik ta'minoti masalalarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirgan holda o'zgartirishlar kiritish lozim ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday fikr bildirishimizga sabab esa, hozirgi tez suratlarda sodir bo'layotgan globallashuv va rivojlanish jarayonida armiyaning zamonaviy texnika va texnologiyalaridan to'laqonli va mukammal foydalana olishi, nafaqat sodir bo'lishi mumkin bo'lган muthish va ko'ngilsiz voqealarda asqotadi, balki ularning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Bunday muammolar nafaqat bizning yurtda, balki jahonning yetakchi davlatlarida ham mavjud, misol uchun: Rossiya Federatsiyasi harbiy fanlar nomzodi (PhD) polkovnik I.B.Karimov bu haqida shunday deydi:

Hozirgi vaqtida qo'shinlarning jangovar xavfsizligi tizimini muhandislik ta'minoti quyidagi sabablarga ko'ra sezilarli darajada yaxshilanishi kerak:

tuzilmani o'zgartirishga olib kelgan funktsiyalar va vazifalarni kengaytirish va qo'shinlar tarkibi;

yangi harbiy qo'mondonlik va boshqaruva organlarini (mintaqalararo (mintaqaviy) darajada Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo'shinlari Federal xizmatining hududiy organlari) va muhandislik ta'minotini shakllantirish va rivojlantirish;

muhandislik qurollari, o'q-dorilari va jihozlarini ishlab chiqish va ularni yuqori professional darajada o'zlashtirish zarurati;

muhandislik o'rtaqidagi o'zaro aloqani tashkil etishning roli va ahamiyati ortib bormoqda topshiriqlarni bajarish va muhandislik-texnik ta'minot tadbirlarini bajarishda turli darajadagi va tarkibdagi tezkor tuzilmalarga ega bo'lган harbiy qismlar va bo'linmalar;

qo'shinlarning ham, qarama-qarshi tomonning ham foydalanish shakllari va harakat usullarini o'zgartirish;

huquqni muhofaza qiluvchi kuchlar tomonidan javob choralarini o'z vaqtida ko'rmaslik yoki kechiktirish;

muhandislik ta'minoti kuchlari va vositalarini boshqarish tizimining optimal tarkib va ierarxik tuzilmaning soddaligi talablariga mos kelmasligi[3].


Uning fikricha muhandislik ta'minoti tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyati uning asosida ob'ektlarni (quyi tizimlarni) shakllantirishdir: mustahkamlash uskunalari quyi tizimlari, muhandislik to'siqlari quyi tizimlari, ob'ektlarni muhandislik-texnik xavfsizlik uskunalari komplekslari (MTXUK, ruschada KITCO) va boshqa quyi tizimlar bilan jihozlash quyi tizimlari. Vazifani aniqlash va shunga mos ravishda ularga erishish uchun kuchlar va vositalarning tarkibi ko'p jihatdan muhandislik ta'minoti maqsadlarini shakllantirishning aniqligiga bog'liq bo'ladi.

Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki muhandislik ta'minotini tashkillashtirishda "Ierarhik" tizimdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi

tashkillashtirilishi ko'zda tutilgan tizim ko'lami katta bo'lganligi tufayli u bitta o'rgan tomonidan to'laqonli nazorat qilinishiga imkon bermaydi va natijada boshqaruv funksiyalarini ajratish zaruriyati paydo bo'ladi, "Ierarahik" tuzulma esa bosqichli boshqaruvdan iborat bo'lib, ularning har biri o'z boshqaruv zanjirlariga ega bir yoki bir nechta quyi tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu esa axborot almashinuvini, boshqaruv va nazorat qilishni bir necha barobar yengillashtiradi.

Bunday tizimni qulayligini hozirgi kunda faoliyat yurutib kelayotgan har qanday tuzulmalar misolida ko'rishimiz mumkin, hususan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi apparatining strukturasini misol qilamiz:

## O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi apparatining strukturasи:



Ushbu sxemadan ko‘rinib turibdiki “Ierarhik” tuzumga ega bo‘lgan o‘rganlarni nazorat qilish, axborotlarni qayta ishslash va boshqarish ancha onson. Bu esa o‘z

navbatida yaqinlashib kelayotgan tashqi va ichki xavfdan ogoh bo‘lish va uni o‘z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek Davlatlat xavfsizligiga tahdid qiluvchi omillar nafaqat “tashqaridan” balki ichki nizolar va fuqarolar urushidan ham yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan kuch tuzulmalari va muhandislik ta’minotini zamon talablariga mos ravishda tashkil qilishimiz lozim. Buni amalga oshirishda eski yani “Chegara yaqinida kuchli istehkomlar yaratish bizni urush boshlanishidagi muvaffaqiyatsizliklardan kafolatlaydi” kayfiyyatidan vos kechgan holda, harbiy bo‘linmalar va boshqa kuch tuzulmalari, texnik-muhandislik va muhandislik ta’minotini “chevara hududlarining tinch ko‘rinishi, resurslarni oqilona va yetarli tarzda taqsimlanishi” prinsiplariga asoslangan holda harakat olib borishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu harakatlar harbiy kuch tuzulmalari va muhandislik uskunalarining doimiy jangovar shayligi davlat xavfsizligini ishonchli ta’minalash bilan birga, uning tajovuskor kayfiyyatda emasligini namoish etadi. Fikrimizga qo‘sishimcha sifatida Polkovnik A. I. BORODEYKO, ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiy fanlar nomzodi, dotsent va Polkovnik A. V. XIZNYAK, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kafedrasi boshlig‘i Belarus Respublikasi harbiy akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, dotsenlarning **Zamonaviy sharoitda muhandislik ta’minotini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari** nomli ilmiy maqolasida ta’kidlab o‘tgan so‘zlarini kiritib o‘tsak:

Qo’shinlar va himoya ob’ektlarini muhandislik bilan ta’minalash, birinchi navbatda, harbiy doktrinaning qoidalari muvofiq bo‘lishi va zamonaviy strategiya va operatsion san’at talablarini hisobga olishi kerak. Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtida biz ilgari intilgan butun Davlat chegarasi bo‘ylab istehkomlar yaratish haqida gapira olmaymiz. Hududning muhandislik ta’minoti bo‘yicha bir xilligi ham oqilona emas[4].

Yuqoridagi statistika bilan birgalikda berib o‘tilgan ma’lumotga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida ham Yengil zirhlangan transportlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan, ammo bugungi sharoitda mavjud xavflarga qarshi turish uchun buning o‘zi kamlik qiladi. Shu sababdan yurtimizda ham mahalliy harbiy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishni yanada kengaytirishimiz lozim. Shu va shunga o‘xshash holatlar haqida A. I. BORODEYKO va A. V. XIZNYAKlar o‘zlarining ilmiy maqolalarida quyidagi fikrni aytib o‘tishgan:

Bunday sharoitda muhandislik qurollarining progressiv qarishi va uni yangi namunalar bilan almashtirish qobiliyatining pastligi o‘rtasidagi ziddiyatni hech bo‘limganda qisman hal qilish, shuningdek, muhandislik qo’shinlarining jangovar tayyorgarligining zarur darajasini saqlab qolish talablarini quyidagi asosiy choratadbirlar orqali bajarish mumkin:

- doimiy tayyorlikning muhandislik qismlarini ymetarli miqdordagi motor resurslari bilan jihozlash;

- markazlashtirilgan va mahalliy moddiy-moliyaviy resurslardan foydalangan holda eski texnologiyalarning eng qimmatli namunalarini tiklash;
  - davlat mudofaa buyurtmasiga (dmb), birinchi navbatda, eng istiqbolli muhandislik qurollari (IMQ)ni kiritish;
- IMQning zarur zaxiralarini yaratish.

Shu bilan birga, yangi avlod IMQni yanada rivojlantirish zarurati ham aniq. Ushbu ish katta tashkiliy va moddiy xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli, ajratilgan mablag'lar sharoitida muhandislik qurollari tizimini muvozanatli rivojlantirish va barcha yo'nalishlarda erishilgan darajani saqlab qolish qiyin. Bunday sharoitda qat'iy ustuvorliklar tizimiga muvofiq IMQ rivojlanishini rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Ajratilgan mablag'larni eng oqilona sarflashga, ilmiy-ishlab chiqarish bazasini va tayyorlangan safarbarlik resurslarini tejashta imkon beradigan ikki tomonlama texnikadan kengroq foydalanish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, uskunalar zaxiralariga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamayadi[4]

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki muhandislik qurollari samaradorligini oshirishda yuqori sifatli sakrashga sanoatda innovatsion loyihibar, qidiruv va fundamental tadqiqotlarda ilmiy zaxiralardan maksimal darajada foydalanish orqali erishish mumkin. har-qanday tuzulmani tashkil qilishda (xarbiy kuch tuzulmalari, fuqarolik o'rganlari va h.k) davlatning geosiyosiy, ma'naviy va moddiy holatini inobatga olgan holda zamon talablariga javob bera oladigan holda tashkillashtirishimiz lozim. Harbiy muhandislik ta'minoti ham bundan mustasno emas. Avvalari yo'l qo'yilgan hatolar va hozirgi vaqtda dunyoda sodir bo'layotgan mutxish vaziyatlardan to'g'ri hulosa chiqargan holda, ichki va tashqi xavflarga munosib qarshilik qilishga qodir harbiy va muhandislik ta'minotini tashkil qilishimiz lozim. Bu yo'lda biz ilm ahli zamon bilan ham-nafas bo'lib izlanishlarda davom etamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/15/uz-army/> 15 yanvar 2022 #siyosat.
2. [https://dzen.ru/a/Y72rAmwqexfrIeoO?share\\_to=link](https://dzen.ru/a/Y72rAmwqexfrIeoO?share_to=link) 11 января 2023
3. Полковник И.Б. КАРЫМОВ, кандидат военных наук. Системный подход к совершенствованию инженерного обеспечения служебно-боевых действий войск национальной гвардии. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНЖЕНЕРНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СБД ВОЙСК НАЦГВАРДИИ стр.51 (51 betdan olingan va tarjima qilingan)
4. Polkovnik A. I. BORODEYKO, ilmiy-tadqiqot instituti bo'lim boshlig'I Belarus Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiy fanlar nomzodi, dotsent va Polkovnik A. V. XIZNYAK, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari kafedrasi boshlig'i Belarus Respublikasi harbiy akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, dotsenlarning
5. **Zamonaviy sharoitda muhandislik ta'minotini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.** UDK 358. Ilm-fan va harbiy xavfsizlik № 3/2006, 48-50 betlar <https://www.militaryarticle.vibrokatok.by/nauka-i-voennaya-bezopasnost/2006/11951-osnovnye-napravlenija-organizacii-inzhenernogo>